

XORAZMSHOHLAR DAVLATI RIVOJIDA SHAHARLARNING RO‘LI

Abdumuxtorov Muslimbek Abdullajon o‘g‘li¹

Zokirov Zohidjon Toxirjon o‘g‘li²

Abdumannobova Nazokat Yaxyobek qizi³

Namangan to‘qimachilik sanoati instituti

Annotatsiya: Xorazmshohlar davrida shaharlar hayotini o‘rganish jarayonida ko‘plab qiziqarli, kerakli ma‘lumotlarga ega bo‘lindi. Xorazmshohlar davlati shaharlarini juda ko‘plab yurtimiz olimlari, chet el olimlari, sayyohlari o‘rganishgan va usha davr manbalariga asoslanib juda kerakli ma‘lumotlarni yozib qoldirganlar. Bu davrda Xorazm vohasida Gurganch, Kat, Ko‘hna Urganch, Xiva, Mizdahqon, Shaharlik, Janpiq va Pil va shu kabi boshqa shaharlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Savdo munosabatlarining taraqqiyoti Xorazmni Buyuk Ipak yo‘lining Markaziy tarmoqlari kesishgan markazlardan biriga aylanishiga, turli sohalarga ixtisoslashgan ayniqsa, savdo munosabatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan savdo markazlarining vujudga kelishiga olib kelgan.

Kalit so‘zlar. Ko‘hna Urganch, Gurganj, Oltin O‘rda.

Ko‘hna Urganch 10 – 14-asrlarda Xorazm davlatining poytaxti bo‘lib, Xorazm va Movarounnahrda eng katta shaharlardan biri edi. Asl nomi Gurganj, arab geograflari asarlarida Jurjoniya deb tilga olinadi. Miloddan avval 1-asr Xitoy solnomasida Yuye-Gan yoki Yuye-Szyan shaklida qayd qilingan. 10-asrning 2-yarmida markazi Gurganjda bo‘lgan mustaqil amirlik vujudga kelib, u Kat shahridagi xorazmshohlar bilan raqobat qila boshladi. 995 yilda Gurganj amiri Ma‘mun ibn Muhammad Katdagi xorazmshohlar sulolasini tugatib, o‘zini Xorazmshoh deb e‘lon qildi (995–997). O‘sha vaqtdan Gurganj Xorazm davlatining yagona poytaxti bo‘lib qoldi va 11 – 12-asrlarda bu yerda madaniyat va san‘at ravnaq topdi. O‘sha davrda shahar mustahkam qal‘a devorlari bilan o‘rab olindi. Ba‘zi shahar darvozalarining nomlari tarixiy qo‘lyozma asarlarda ko‘rsatib o‘tilgan, bo‘lar: Xajjaj, Kobilon. Gurganch (Urganch)da "Ma‘mun akademiyasi"ga asos solgan (qarang Xorazm Ma‘mun akademiyasi). O‘rta Osiyo, Sharq mamlakatlarining bir qancha alloma, shoir va yozuvchilarini o‘z atrofiga to‘plagan. Ma‘mun Ibn Ma‘mun Abul Abbas Urganchda bir qancha yirik binolar qurdirgan. Mahmud G‘aznaviyning Xorazmga qilgan yurishi (1017) natijasida bu yerdagi olimlarning ko‘pchiligi G‘aznaga majburan olib ketilgan, shahar inqirozga yuz tutgan.

1221-yilda Chingizxon qo‘shinlari shaharni 6 oy qamal qilib ololmagach, Amudaryoni to‘sib turgan to‘g‘onni buzib, shaharni suvga bostirdi. Mo‘g‘ullar barcha hunarmandlarni ajratib olib Mo‘g‘ulistonga haydab olib ketdilar,

qolgan aholini qirib tashladilar va bu insoniyat tarixidagi eng qonli qirgʻinlardan biri hisoblanadi. Oʻsha davr fors tarixchisi Juvayniy yozishicha, 1221-yilda Gurganjning milliondan ziyod nufusi boʻlgan va 50 ming moʻgʻul askariga har biriga yigirma toʻrttadan Gurganjlikni qatl etish vazifasi yuklanganin, yaʼni 1,2 million Gurganjlikni moʻgʻullar qilichdan oʻtkazgan.

14-asrning boshlarida Oltin Oʻrda taʼsirida boʻlgan shaharda binokorlik ishlari jonlandi.1333-yilda Gurganjga kelgan mashhur arab sayyohi Ibn Battuta buning guvohi boʻlgan.

1373-yilda Temur Xorazmga hujum qiladi va uning hukmdori Soʻfiylar sulolasidan boʻlgan Yusuf Soʻfi Temurga taslim boʻladi. 1379-yilda Yusuf Soʻfi Urganchni talon-toroj qilgan Temurga qarshi isyon koʻtardi va Yusuf Soʻfi oʻldirildi. 1388-yilda Urganchdagi soʻfiylar sulolasi yana Temurga qarshi isyon koʻtardi; bu gal Temur Urganchni yer bilan yakson qildi va aholisini qatliom qildi, shaharning sugʻorish tizimini vayron qildi, shahar turgan yerga arpa ekib, faqat bitta masjid qoldi.Bu Amudaryo oqimining keskin oʻzgarishi bilan birga Koʻhna-Urganchning tanazzulga yuz tutishining boshlanishi boʻldi.XVI asrda Xiva Xorazm poytaxti sifatida almashtirilib, oxir-oqibat tashlab ketilgan.

15–16-asrlarda shaharning madaniy va iqtisodiy rivojlanishida bir oz turgʻunlik roʻy beradi.1646-yilda Xiva xoni Abulgʻoziy Bahodirxon (1643–1664) hozirgi Urganch shahriga asos soldi.Shundan keyin qad. shaharning nomi Koʻhna Urganch boʻlib qoldi.Xiva xoni Muhammad Aminxon (1846-55) Koʻhna Urganchda boʻlib Xorazm poytaxtini oʻsha yerga koʻchirishga qaror qildi.Lekin, uning 1855-yilda Saraxsda turkmanlar bilan boʻlgan jangdagi fojiali oʻlimi bu ishga barham berdi.

Keyinchalik bu hududda 19-asrning boshlaridan boshlab turkmanlar yashagan, ammo ular, asosan, eski shahardan tashqarida yashagan va eski shaharda qabriston sifatida foydalangan.Ammo, hozirda shaharning eski qismini qabristonga aylantirish toʻxtatildi.

1924-yilda Koʻhna Urganch Turkmaniston tarkibiga kiritildi.Shaharning qadimiy qismi 1985-yilda Davlat tarixiy-madaniy muzey-qoʻriqxonasi deb eʼlon qilindi.Koʻhna Urganchdagi bir necha meʼmoriy yodgorliklar UNESCO tashkilotining roʻyxatiga olindi.Shaharda oʻlkashunoslik muzeyi faoliyat koʻrsatadi. Shaharning turistik infrastrukturasini vujudga keltirish, arxeologik qazishmalar, tarixiy yodgorliklarni konservatsiya qilish va taʼmirlash ishlarini faollashtirish maqsadida 1997-yilda Turkmaniston hukumati nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda "Koʻhna Urganchning madaniy sferasini rivojlantirish" loyihasini amalga oshirishga kirishdi.

Koʻhna Urganchda 12– 14-asrlar meʼmoriy yodgorliklaridan El Arslon, Takash, Toʻrabekxonim, Najmiddin Kubro maqbaralari, Qutlugʻ Temur (jome masjidi) minorasi hamda karvonsaroy qoldiqlari, 16-asr yodgorliklaridan Sulton Ali

maqbarasi, 20-asr boshidagi yodgorliklaridan Toshmasjid madrasasi va boshqa saqlangan. Koʻhna Urganchning eng qadimiy qismi hisoblangan Qirqmulla tepaligida 1989–92 yillarda olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida u miloddan avvalgi 5–4-asrlarda vujudga kelganligi aniqlandi.

Tarixda Koʻhna Urganch (Gurganj) oʻsha yerda yashab, ijod etgan va faoliyat koʻrsatgan mashhur kishilar (Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Maʼmun akademiyasining buyuk allomalari Beruniy, Ibn Sino, Abu Saxl Masihiy, Abul Hayr Hammor va boshqalar) bilan dunyoga tanilgan.

Vohada tijorat markazlarining paydo boʻlishi va ularning mintaqada roʻy bergan siyosiy-tarixiy jarayonlarga taʼsiri, xorazmliklarning Markaziy Osiyo ichki savdosida tutgan oʻrni qadimdan juda katta boʻlganligini yozma va arxeologik manbalar toʻliq tasdiqlaydi

Tarixiy taraqqiyot davomida savdo-sotiq munosabatlari rivojiga yoki inqiroziga siyosiy jarayonlar katta taʼsir oʻtkazgan. Xususan, X-XV asrlarda Markaziy Osiyoda roʻy bergan siyosiy jarayonlar taʼsirida markazlashgan davlatlarning vujudga kelishi (somoniyalar, gʻaznaviyalar, qoraxoniylar, saljuqiylar, xorazmshoh anushtaginiylar, Amir Temur va temuriylar davlati), ularning nafaqat Markaziy Osiyoni, balki Eron, Ozarbayjon va Yaqin Sharqning baʼzi mamlakatlarini oʻz tarkibiga qoʻshib olishi natijasida ulkan hududda siyosiy barqarorlik oʻrnatildi. Ushbu xolat oʻz navbatida ichki va tashqi savdo-sotiqning rivojlanishiga olib keldi. XIII asr boshlarida roʻy bergan moʻgʻul-tatarlar bosqini oqibatida Xorazmda, ayniqsa uning Chigʻatoy ulusi tarkibiga kiruvchi qismida uzoq vaqt iqtisodiy hayot hamda savdo-sotiq munosabatlari inqirozga duch keldi. Xullas, siyosiy jarayonlar nafaqat savdo munosabatlari taraqqiyoti, balki, shaharlarning paydo boʻlishi, rivojlanishi va halokatiga ham taʼsir qildi.

Xorazmda savdo-sotiq markazlarining vujudga kelishi va taraqqiyoti ham siyosiy jarayonlardan chetda qolmadi. Ular oʻrta asrda Xorazmda barpo etilgan shaharlarning shakllanishiga taʼsir koʻrsatdi. Natijada vohadagi yangi shaharlar vujudga kelishi bir necha asosda roʻy bergandi:

- davlat chegarasidagi mustahkam mudofaa qalʼalari atrofida;
- sunʼiy sugʻorish tizimining rivojlanishi asosida ular yaqinida hamda daryo boʻyi vohalarida;
- qalʼalarning atrofidagi qishloqlar bilan qoʻshilishi asosida;
- qulay kechuvlar yoki oʻtish joylarida;
- karvon yoʻllari ustida va aloqa bekatlari, karvonsaroylar atrofida.

Oʻrta asrlarga oid tarixiy va arxeologik maʼlumotlarni tahlil qilgan holda Xorazmda savdo-sotiq bilan bogʻliq urbanizatsiyaning uchta hududi mavjud boʻlganligini koʻrish mumkin:

- aholi juda qadimdan yashab kelgan Markaziy Amudaryo boʻyi hududi

-VII-IX asrlarda shaharlar paydo bo'lgan va XII-XIII asr boshlarida juda gullab yashnagan Quyi Amudaryo hududi;

- vohaning shimoliy-g'arbiy va g'arbiy chekkalari - Shimoliy Davdon va Daryolik oralig'ida mavjud bo'lgan shaharlar turli davrlarda barpo etilgan bo'lib, ularning gullab yashnagan vaqti XIII asr oxiri XIV asrga to'g'ri keladi.

Manbalardagi ma'lumotlar va arxeologik tadqiqot natijalari Xorazmning X-XV asrlarda Markaziy Osiyoning uzviy bo'lagi sifatida ichki va tashqi savdosida tutgan o'rnini bir qadar oydinlashtirish imkonini beradi. Ibn Fadlan, al-Maqdisiy, al-Istahriy, Ibn Rusta kabi arab olimlari Xorazmning Mavoraunnahrning tashqi savdosida juda katta rol o'ynagani, ayniqsa Sharqiy Evropa, Volgabo'yi va Sibir xalqlari bilan tranzit savdoda asosiy bog'lovchi xalqa sifatida beqiyos katta ahamiyatga ega bo'lganini ta'kidlaganlar.

Muhammad Narshaxiy o'zining “Buxoro tarixi” kitobida arablar istilosi va undan oldingi davrlarda So'g'diyonaning ichki savdosida Xorazm tangalari asosiy rol o'ynaganligini yozgandi. IX-X asrlarda mavjud bo'lgan Varaxsha, Poykent va Qumsovgan kabi So'g'd shaharlaridan topilgan ashyolar orasida Xorazmda mayda ayirboshlov uchun zarb qilingan tangalar mahalliy tangalaridan keyingi ikkinchi o'rinda turgan.

Xorazmning Mavoraunnahr bilan olib borgan savdo munosabatlari asosan uchta quruqlik va Amudaryo orqali o'tgan bitta suv savdo yo'li orqali amalga oshirilgan. Ushbu karvon yo'llarining deyarlik barchasi Buxoro orqali o'tgan bo'lib, savdo-sotiq aloqalarini kengaytirishda mazkur shaharning ahamiyati juda katta bo'lgan.

Ko'chmanchilar bilan munosabatlar ayniqsa X-XV asrlarda juda ham kengayib, o'sha davrga oid yozma manbalarda o'z aksini topgan. “Xorazmliklarning mamlakatida oltin va kumush konlari yo'q, qimmatbaho toshlar to'g'risida esa so'z ham bo'lishi mumkin emas. Ular boylikning katta qismini turklar bilan savdodan va mol boqib ko'paytirishdan topadilar”, - deb yozgandi arab sayyohi al-Istahriy.

“O'rta Osiyo hayotida ko'chmanchilar bilan bo'ladigan savdo Sharqiy Evropa bilan olib boriladigan savdo munosabatlaridan kam bo'lmagan”, - deb yozgandi akademik A.Yu.Yakubovskiy. Mazkur ilmiy muammoni jiddiy o'rganishga e'tibor qaratgan akademik V.V.Bartold ham: “Xorazm o'z boyliklarini islom davrida yanada taraqqiy qilgan ko'chmanchilar bilan savdo aloqalari orqaligina orttirgan. Bu savdo-sotiq munosabatlari asosan Xorazmning shimolida jamlangan edi”, - deb ko'rsatgandi.

Xorazm poytaxt shaharlari - Kat bilan Gurganj deyarli barcha manbalarda g'uzlar Turkistoniga kiruvchi darvoza sifatida eslatiladi. Ular bilan bir qatorda ko'chmanchilar dunyosi bilan bo'lgan savdoda Kat, Gurganj, Mizdahqon, Madminiya (Bug'roxon) va Git (Puljoy) kabi savdo shaharlari ham muhim rol o'ynagan. Ko'hna Urganch, Xiva, Mizdahqon, Shaharlik, Janpiq va Pil qal'a yodgorliklaridan ko'chmanchilarga xos

rombisimon temir o'q uchlari, so'roq belgisi shaklidagi ayollar sirg'alari hamda kamon ipini tortishga mo'ljallangan uzuk shaklidagi suyakdan yasalgan buyumlarning topilishi o'troq dehqonchlik va hunarmandchilik hududlari bilan chorvadorlarning azaliy oldi-sotdi munosabatlari mavjud bo'lganligini arxeologik jihatdan tasdiqlaydi.

XULOSA

Xorazmshohalar davrida shaharlar hayotini o'rganish jarayonida ko'plab qiziqarli, kerakli ma'lumotlarga ega bo'lindi. Xorazmshohlar davlati shaharlarini juda ko'plab yurtimiz olimlari, chet el olimlari, sayyohlari o'rganishgan va usha davr manbalariga asoslanib juda kerakli ma'lumotlarni yozib qoldirganlar. Bu davrda Xorazm vohasida Gurganch, Kat, Ko'hna Urganch, Xiva, Mizdahqon, Shaharlik, Janpiq va Pil va shu kabi boshqa shaharlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Savdo munosabatlarining taraqqiyoti Xorazmni Buyuk Ipak yo'lining Markaziy tarmoqlari kesishgan markazlardan biriga aylanishiga, turli sohalarga ixtisoslashgan ayniqsa, savdo munosabatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan savdo markazlarining vujudga kelishiga olib kelgan.

Butun Sharq shaharlari ierarxik tuzilishidagi muayyan shaharlarning tutgan o'rni, ko'p hollarda, uning ijtimoiy - iqtisodiy imkoniyati va karvon yo'llari bilan aloqasi, savdo munosabatlariga qanday tortilganligi bilan belgilangan. Xullas, aynan shu sabablarga ko'ra, Xorazm savdo markazlari to'g'risidagi turli-tuman ma'lumotlar IX asrdayoq paydo bo'la boshlagan edi. Shaharlarning taraqqiy qilishda savdoning ahamiyatini sharq geograflari, tarixchi va sayyohlari ham tushunib etganlarki Xorazm shaharlari tavsifnomasida, albatta, bozorlar, karvonsaroylar, atrofidan qanday karvon yo'llari o'tganligi haqida qayd qilib o'tganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Masharipov O.. Xorazm tarixidan sahiifalar. –T., 1994.
2. Xorazm tarixi. 1-qiism.–Urganq, 1997.
3. Xorazm tarixi. 2-qiism.–Urganq, 1997.
4. Boboev X. Ўzбек davlatчилиги тарихи. T.1. – T., 2004.
5. Boboev X., Хидиров З. ва бошқ. Ўзбек davlatчилиги тарихи. T. 2. – T., 2009.
6. Жабборов И.М. Буюк Хоразмшоҳлар davлати. -T., 1999.
7. Саидов Ш. Ўрганилаётган мамлакатлар тарихи (Хоразмшоҳларануштакинлар davлатининг юксалиши ва ҳалокати). –T, 2006